



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEK QIZI TIMSOLINING EVRILISHI

Ergasheva Bahridil G‘olibjonovna

Tarix instituti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek qizlari tarbiyasining etnografik jihatlari va sovet davri mafkuraviy g‘oyalarini evrilishlari tahlil qilingan. Maqolada an‘anaviy oilaviy qadriyatlar, xulq-atvor me‘yorlari va mustamlaka siyosatining ta‘lim-tarbiya tizimiga ta‘siri tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Olingan natijalar milliy qadriyatlarning hayotiylikini va ularning jamiyat barqarorligidagi o‘rnini ko‘rsatib beradi. Maqola xulosalari zamonaviy pedagogika va sotsiologiya sohalari uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: qizlar tarbiyasi, sovet mafkurasi, milliy qadriyatlar, marosim, ozodlik, baxt uyi, evrilish.

ЭВОЛЮЦИЯ ОБРАЗА УЗБЕКСКОЙ ДЕВУШКИ

Эргашева Бахридил Голибжоновна

Институт истории, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются этнографические аспекты воспитания узбекских девушек и трансформации идеологических концепций в советский период. На основе исторических источников освещается влияние колониальной политики на систему образования, традиционные семейные ценности и нормы поведения. Полученные результаты демонстрируют жизнеспособность национальных ценностей и их роль в обеспечении социальной стабильности. Выводы статьи служат важным научным ресурсом для современной педагогики и социологии.

Ключевые слова: воспитание девочек, советская идеология, национальные ценности, обряд, свобода, «Дом счастья» (Бахт уйи), трансформация.

THE EVOLUTION OF THE IMAGE OF THE UZBEK GIRL

Ergasheva Bahridil Golibjonovna

Institute of History, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the ethnographic aspects of the upbringing of Uzbek girls and the transformations of ideological concepts during the Soviet era. Based on historical sources, the impact of colonial policy on the education system, traditional family values, and norms of behavior is highlighted. The results demonstrate the vitality of national values and their role in social stability. The conclusions of the article serve as an important scientific resource for the fields of modern pedagogy and sociology.

Keywords: upbringing of girls, Soviet ideology, national values, ritual, freedom, "House of Happiness" (Baxt uyi), transformation.

Kishilik rivojlanish tarixida oila va unda farzand tarbiyasi, xususan, qiz bola tarbiyasi jamiyatning ma‘naviy qiyofasini belgilovchi muhim jihat hisoblangan. Ushbu masala o‘zbek xalqiga ham bevosita daxldor bo‘lib, milliy o‘zlikni anglashda qiz bolaning oiladagi o‘rni, uning axloqiy qiyofasi va ijtimoiy maqomi nihoyatda muhimdir. Sharqona tarbiya va diniy qadriyatlar asosida shakllangan oilalardagi tarbiya tizimi yuz yillar davomida “Gul o‘ssa – yerning, qiz o‘ssa – elning ko‘rki” [13] kabi maqollar zahirida qiz bolani nafaqat bir oilaning farzandi, balki butun millatning kelajagi deb bilish falsafasini mujassam etgan. Garchi o‘zbek xotin-qizlarining

jamiyatdagi oʻrni turli davrlarda oʻziga xos shakllangan boʻlsa-da, ularning oiladagi oʻrni hamisha barqaror boʻlgan.

Xalqimiz farzand tarbiyasida diniy ayirmagan, aksincha, axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun diniy qoidalardan unumli foydalanib kelgan. Sovet davriga kelib, “din xalq uchun afyundir” [3, 25] degan gʻoya asosida butun Sovet Ittifoqi tarkibidagi millatlardan yagona rus millatini yaratish maqsadida diniy va milliy qarashlar tazyiq ostiga olindi, bu holat farzand tarbiyasi borasida ham alohida qoʻllandi. Bolalar tarbiyasida onaning oʻrni muhim ekanligini anglagan holda, onalarni farzand tarbiyasidek muhim ishdan “ozod” qilib, jamiyat yumushlariga jalb etish, bolalarni hali aqlini tanimasidan bolalar bogʻchalariga berish orqali ular ongini “xurofot”lardan uzoq tutishga urinildi [3, 25]. Buning natijasida onalar farzand tarbiyasidek muhim vazifadan chetlashib, ulardan maʼnan uzoqlasha boshladilar. Bu, albatta, farzandlar tarbiyasiga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyot va manbalarni uch guruhga boʻlish mumkin. Birinchi guruhga tarbiyaga oid qarashlar aks etgan manbalar kiradi. E. Salimova oʻzining maqolasida bu haqda fikr yuritib, tibb ilmi bilimdoni Abu Ali ibn Sinoning “Bola bolaligidan nimaga odatlantirilgan boʻlsa, shunga qarab shakllanadi” degan gʻoyasini oʻrganilgan davr nuqtai nazaridan yoritadi [12, 25]. Oʻzbek xotin-qizlarining noyob isteʼdodlari haqida Choʻlpon “Uvaysiy” [2, 22] nomli maqolasida batafsil bayon etadi.

Ikkinchi guruh esa sovet davrida nashr etilgan gazeta va jurnallardan iborat boʻlib, ularda chop etilgan maqolalarda mafkuraviy ustunlikni kuzatish mumkin. Ularda oʻzbek xotin-qizlari ota-onaga isyon etuvchi, iffat va itoat esa qoloqlik sifatida talqin etiladi. Xususan, S. Narzullayeva “Navoiy dostonida Layli obrazi” [10, 4] nomli maqolasida ana shu holatni kuzatish mumkin. Shuningdek, oʻzbek xotin-qizlarining ogʻir mehnati ulugʻlab yozilgan H. Elmurodovanning “Saodat” jurnalida chop etilgan maqolasida tongni paxta dalasida kutib olish muvaffaqiyat kaliti sifatida eʼtirof etilgan. Ammo ushbu maqola ham sovet hukumati manfaatlariga xizmat qilgan holda yozilgan. K. Krupskayaning “Yorqin hayot” jurnalida yozgan maqolasida esa oʻzbek qizlarining begona erkakni koʻrganida oʻzini chetga tortishi qoloqlik deb baholangan [6, 9].

Uchinchi guruh adabiyotlarida asosan oʻzbek xotin-qizlarini kasb-hunarga tayyorlash borasidagi fikrlar bildirilgan boʻlib, oʻsha paytda faoliyat yuritgan xotin-qizlar klublarida tikuvchilikdan tashqari merganlikka ham tayyorlangani haqida maʼlumotlar uchraydi. Shuningdek, urush davrida jang maydonida sanitarlik, feldsherlik, aloqachilik va boshqa yumushlarni bajargan oʻzbek qizlari haqida H. Tojiboyev batafsil yoritadi [8, 28].

Tahlilga tortilgan manba va adabiyotlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek oilalarida qiz bola tarbiyasi milliy anʼanalar asosida shakllangan boʻlsa-da, jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy oʻzgarishlar qizlardagi hayo va iffatning qoloqlik sifatida baholanishiga sabab boʻlgan. Bundan tashqari, xotin-qizlarni kasb-hunarga oʻrgatish asosida ularni ogʻir mehnatga chorlash, shuningdek, harbiy ishlarga safarbar etish siyosati yotganini ham ochiq namoyon etadi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, XX asrning birinchi yarmida Oʻzbekistonda sovet hukumati tomonidan olib borilgan “xotin-qizlarni ozod qilish” siyosati milliy tarbiya tizimida chuqur evrilishlarga olib kelgan. Bu siyosat oʻzbek xalqining har bir qatlami va har bir yosh davrida amalga oshirilib, barchani qamrab olishga harakat qilingan.

Oʻzbek xalqining farzand tarbiyasiga oid qadim urf-odat va marosimlari taqiqlanib, ularning oʻrniga yangilari majburiy ravishda joriy etildi. Masalan, nikoh va baxt saroylari qurilib, farzand tugʻilishi va nikoh bilan bogʻliq marosimlar oʻtkazila boshlandi. Shulardan biri farzand tugʻilishi bilan bogʻliq yangi joriy etilgan tugʻilganlik haqidagi guvohnomani topshirish marosimi edi. Anʼanaga koʻra, yangi tugʻilgan chaqaloq beshikka solingan boʻlsa, endilikda bu eskilik sarqiti sifatida baholanib, ularni krovatlarga yotqizish targʻib qilindi. Bunday marosimlar asosan “Baxt uyi”da oʻtkazilib, dastlab chaqaloqni ota-onasining birga ishlaydigan kasbdoshlari vakillari va bolalar shifokori qarshilagan. Hamma yigʻilgach, chaqaloqni tantanali roʻyxatga olish marosimi oʻtkaziladigan zalga olib kirilib, unga berilgan ism, familiya va otasining ismi tantanali

ravishda e'lon qilingan hamda yaqinlari tomonidan tabriklanib, qarsaklar bilan olqishlangan [5, 18]. So'ng chaqaloq baxt gilami ustidagi maxsus yasatilgan krovatga solingan. Yaqinlar esa otanani tabriklab, sovg'a-salom berishgan.

Odatga ko'ra, o'zbeklarda chilla alohida ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa, chaqaloqning chilla davriga alohida e'tibor berilgan va imkon qadar go'dak ko'zdan pana qilingan. Bundan ko'zlangan maqsad chaqaloqni ko'z tegishidan va turli viruslardan himoya qilish bo'lgan. Bu xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda ham isbotlangan usul bo'lib, albatta, bu an'anani o'zgartirish uchun tashviqot ishlari jadal sur'atlarda amalga oshirilgan.

Xalqimiz farzand tarbiyasida dinni ayirmagan, aksincha, axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun diniy qoidalardan unumli foydalanib kelgan. Sovet davriga kelib, "din xalq uchun afyundir" [3, 25] degan g'oya asosida butun Sovet Ittifoqi tarkibidagi millatlardan yagona rus millatini yaratish uchun diniy va milliy qarashlar tazyiq ostiga olindi, bu holat farzand tarbiyasi borasida ham alohida qo'llandi. Bolalar tarbiyasida onaning o'rni muhim ekanligini anglagan holda, onalarni farzand tarbiyasidek muhim ishdan "ozod" qilib, ishlab chiqarishga jalb etish, bolalarni hali aqlini tanimasidan bolalar bog'chalariga topshirish orqali ularni turli "xurofot"lardan uzoq tutishga urinildi [3, 25]. Aslida bu "xurofotlar" o'zbek xalqiga tegishli bo'lgan, qadimdan tajribadan o'tib kelgan tarbiya tizimi bo'lib, ulardan uzoqlashtirish bolani milliy ildizlardan, tilidan, dinidan va tarixiy xotirasidan mahrum qilish degani edi.

Cho'lponning "Uvaysiy" maqolasida an'anaviy o'zbek qizlarining ijodiy va ma'naviy qobiliyatlari e'tirof etilgan bo'lsa-da [2, 22], sovet davrida bu meros mafkuraviy talqinlar orqali o'zgartirildi. Navoiy dostonidagi Layli timsoli misolida klassik obraz siyosiy manfaatlar uchun sun'iy lashtirilib, ayol siymosi "qullik va parangi"dan ozodlik ramzi sifatida qayta talqin qilindi. Bu aslida xotin-qizlarni an'anaviy oilaviy vazifalaridan uzoqlashtirish va jamiyatdagi mehnat hamda siyosiy jarayonlarga jalb etish orqali farzand tarbiyasidan chetlashtirishga urinish edi. Shunday bo'lsa-da, oiladagi ona va bolaning o'zaro munosabatiga jiddiy putur yetkazilmagan, deb ayta olamiz. N. Krupskyaning nutqida qizlarning begona erkaklarni ko'rganida o'zini chetga tortishlari tanqid ostiga olingan bo'lsa-da [6, 9], bu onalar tomonidan avlodlarga o'rgatilgan milliy tarbiya tizimlarining qanchalik barqaror va hayotiy kuchga ega ekanini tasdiqlaydi.

"Saodat" jurnalining 1971 yilgi 11-sonida M. Abdukurimovning "Keng paxtazordan uch lavha" maqolasi e'lon qilingan. Unda paxtazorlarda mehnat qilayotgan va "Qizil bayroq"ni endigina qo'lga olgan paxta teruvchi qiz bilan suhbat aks etgan. Uning muvaffaqiyatining kaliti sifatida tongni dalada kutib olishi ko'rsatilgan. Endi shu o'rinda o'ylab ko'raylik: tun qorong'usida hatto uying hovlisiga ehtiyot yuzasidan chiqishga ruxsat berilmagan qizlarning tongni dalada kutib olishi, albatta, ajablanarli.


Sovet mafkurasi nafaqat rasmiy nashrlar va ta'lim orqali, balki xalqning asriy an'analari va og'zaki ijodiga ham kirib bordi. Oilaviy marosimlar, turli urf-odatlarda ham uning ta'sirini sezish mumkin. Xususan, xonadonidan yangi uyga ketayotgan qizlarning to'y oldi bayrami Andijonda "Qizlar majlisi" deb ataladi. Unda qizlar turli lapar va yor-yorlar aytib, raqsga tushadilar. Qizlar majlisida aytiladigan yallalar albatta zamon ruhiga mos bo'lgan:

Qizlar ichra qizlar bor, qizlar safida ilg'or,
Oltin terib tonnalab, mehnatda bo'ldi dongdor.
Mehnat kuyin kuylashib, kuzda yuzdan so'zlashib,
Uylar to'liq g'allaga, o'ynaydi to'y-to'ylashib [7, 23].

An'anaviy o'zbek laparlari odatda yoshlik gashti, go'zallik, hayo va his-tuyg'ularni ifoda etgan. Biroq bu to'rtlikda qiz bola obrazi lirik qahramondan "mehnat zarbdori" timsoliga aylanayotganidan dalolat beradi.

Sovet hukumati xotin-qizlarni ozodlikka chiqarib, erkaklar bilan teng huquqli qilish deganda, urushga tayyorgarlik holatlarini ham nazarda tutgan bo'lsa kerak. "Oktyabr inqilobi" nomidagi xotin-qizlar klubida tikuvchilikdan tashqari mergan qizlar ham tayyorlangan [1, 27]. Shunday qilib, o'zbek xotin-qizlarining merganlik qobiliyati shakllantirilib, bo'lajak urushga

tayyorlana boshlaganlar.



Umuman olganda, xotin-qizlar jurnali bo‘lgan “Saodat” va undan oldingi jurnallarda o‘zbek xotin-qizlarining hayoti yaqqol aks etgan. Turkum maqolalarda, masalan, “Dugonalar, bormisiz, omonmisiz?” nomli H. Tojiboyev maqolasida urushda qatnashgan qizlarning taqdiri yoritilgan. Garchi maqola qizlarning bu faoliyatini oqlab yozilgan bo‘lsa-da, u urush dahshatlari orasida ruhiy va jismoniy sinovlardan o‘tgan, “ongli va komil inson bo‘lish uchun” yo‘lga chiqqan qizlarning hayot chiziqlaridan iborat bo‘lib, uni tasavvur qilish ham ancha ayanchli. Holbuki, frontda nemis bosqinchilariga qarshi mardona kurashayotgan sanitarlar, feldsherlar, aptekachilar, vrachlar va aloqachilar orasida o‘zbek qizlari ham kam emasligi [11, 23], shuningdek, jang maydonida bir to‘da askarlar orasida o‘zbek qizlarining ham mavjudligi ko‘kka ko‘tarib yozilgan bo‘lsa-da, bu holat ularning ruhiy va jismoniy holatiga qay darajada ta’sir etganini tadqiq etish zarur bo‘lgan masalalardan biridir.

Yuqorida sanab o‘tilgan holatlar garchi siyosiy mafkuraga xizmat qilgan bo‘lsa-da, ammo kelinlikka nomzodlarga talabning o‘zgacha ekanini “Saodat” jurnalining 1972 yil 3-sonida “Orzuga ayb yo‘q” rukni ostida chiqqan maqolalar orqali bilib olishimiz mumkin. Unda kelin qilish uchun qizlardagi qaysi sifatlar muhim ekanligi yoritilgan. Masalan, o‘rta bo‘yli, juda hurliqo bo‘lmasa ham istarasi issiq, odamshavanda bo‘lsa, epli-shudli, o‘zidan kattalarni hurmat qiladigan, kichiklarga shafqatli bo‘lsa [4, 28], degan fikrlar bildirilgan. “Nima shirin – ro‘zg‘or shirin, nima achchiq – ro‘zg‘or achchiq”, deganlaridek, ro‘zg‘orning ziynati bo‘lsa, yelib-yugurib xizmatini qilsa, o‘g‘lingning kelishiga shirin ovqat tutsa, olim bo‘lmasa ham, odamning qadrini bilsa, odamshavanda bo‘lsa, aylanmaysanmi bunday kelindan [9, 28]. “Kelinim o‘qimishli bo‘lsa, tikuvchilikdan xabari bo‘lsa” [8, 28], “eshikdan kirganimda quchoq ochib kutib olsa, shirinso‘z bo‘lsa, o‘g‘limga yordamchi bo‘lsa”, degan fikrlar bildirilgan. Eng muhimi, ushbu sifatlar yuz yillar o‘tsa-da, hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlar orqali ushbu davrda qiz bola qanday bo‘lishi kerakligi haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Avvalo, tashqi ko‘rinish, axloqiy va ma’naviy fazilatlar, ro‘zg‘or tutishga bo‘lgan layoqat, oilaga sadoqat, turmush o‘rtog‘iga ko‘makdosh bo‘lish, bir so‘z bilan aytganda, barcha axloqiy va ma’naviy sifatlarni birlashtirgan qiz timsoli ilgari surilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, sovet hokimiyati tomonidan joriy etilgan “Baxt uyi”da tantanali ravishda ro‘yxatga olish marosimlari shunchaki yangi tartib emas, balki oilaviy hayotning ichki tizimiga aralashish va uni nazorat qilishga qaratilgan harakat bo‘lgan. Beshik va chilla an‘analarining o‘zgartirilishi, bola tug‘ilganidanoq uni “jamoa mulki”ga aylantirish eng muhim qadamlardan biri bo‘lgan.

Sharqona odob, go‘zallik kabi qizlarga xos bo‘lgan axloqiy mezonlar “mergan qiz”, “ilg‘or paxtakor”, “jangchi sanitar” kabi sifatlar bilan almashina boshladi. Bu ularning o‘zini

tutishi kabi tashqi sifatlariga ham ta'sir etmay qolmadi. Turli marosimlarda aytiladigan yallalarning mazmuni o'zgargani xalq og'zaki ijodining ham siyosiy tashviqot quroliga aylanganidan dalolat beradi.

Qizlarning kelin bo'lishi masalasiga kelsak, ularga qo'yilgan talablarning ham o'zgargani ko'rinadi. Albatta, ulardagi ma'naviy, axloqiy va jismoniy yetuklik doim qadrlangan. Bu sifatlar ularning kelin bo'lishidagi talablarda asosiy omillardan biri bo'lgan bo'lsa, endilikda turmush o'rtog'iga iqtisodiy ko'mak bera olishi zarurligi ham yuqoridagi talablarga qo'shildi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sovet hokimiyatining "ayollar ozodligi" shiori ostida yuritgan siyosati mohiyatan ayollarni tarbiyachi bo'lishdan ko'ra davlatning iqtisodiy va harbiy qudratiga hissa qo'shuvchi shaxs sifatida qayta shakllantirdi. Ayol jamiyat mulkiga aylantirildi.

Xalqning yuz yilliklar davomida shakllangan hayotiy tajribasi qadrsizlantirildi. Jamiyatda qiz bola tarbiyasidagi ma'naviy mezonlar moddiy ko'rsatkichlar bilan almashtirildi. Biroq kuchli mafkuraviy bosimga qaramay, oilaviy muhit o'zining ichki etnomadaniy sifatlarini saqlab qola oldi. Qizlardagi ma'naviy-axloqiy sifatlarning e'zozlanishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lutfullayev A. Ajallar klubi // Jarqin turmush. — 1936. — № 4–5. — B. 27.
2. Cho'lpon. Uvaysi // Jarqin turmush. — 1936. — № 4–5. — B. 22.
3. Bekmuhamedova M. Din, oila va tarbiya // Jarqin hayot. — 1939. — № 9. — B. 25.
4. Обидова М. Орзуга айб йўқ // Саодат. — 1972. — № 3. — Б. 28.
5. Ишоқова Н. Олмалик «Бахт саройи» // Саодат. — 1972. — № 11. — Б. 18.
6. Крупская Н. К. Бундай даврда яшаш қандай яхши // Ёрқин ҳаёт. — 1941. — № 2. — Б. 9.
7. Юсупова Н. Қизлар мажлиси // Ўзбекистон хотин-қизлари. — 1961. — № 9. — Б. 23.
8. Хўжаева О. Орзуга айб йўқ // Саодат. — 1972. — № 3. — Б. 28.
9. Ойзода. Орзуга айб йўқ // Саодат. — 1972. — № 3. — Б. 28.
10. Нарзуллаева С. Навоий достонида Лайли образи // Ёрқин ҳаёт. — 1941. — № 4. — Б. 4.
11. Тожибоев Ҳ. Дугоналар, бормисиз, омонмисиз? // Саодат. — 1971. — № 2. — Б. 23.
12. Салимова Э. Одоб ва одат // Саодат. — 1973. — № 3. — Б. 25.
13. Мақоллар: ayol haqida. — URL: <https://myfarzand.uz/maqollar-ayol.html>